

Ekologik ta'lim-tarbiyani yoshlar ongiga singdirishning ijtimoiy-huquqiy masalalari

J.A.Suvonqulov – JDPI katta o'qituvchisi, ilmiy rahbar
D.Bosimov – JDPI Tarix fakulteti 4-kurs talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada uzluksiz ta'lim tizimida atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish bo'yicha yoshlar ongida ekologik ong va madaniyatni shakllantirish va rivojlantirish bo'yicha amaliy takliflar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: Ekologiya, ekologik ong va madaniyat, ekologiya asri, ekologik konsepsiya, ekologik ta'lim, ekologik xavfsizlik, ekologik monitoring

Bugungi kunda, XXI asrda, inson va tabiat o'rtasidagi ekologik uyg'unlik muammosi eng muhim muammolardan biri hisoblanadi. Ming yillar davomida odamlar toza suv ichdilar va toza havodan nafas oldilar. Ammo keyinchalik ilmiy-texnikaviy inqilob boshlandi va ekologiya tez yomonlasha boshladi. Afsuski, bu jarayon to'xtamaydi, tobora kuchayib bormoqda.

Ekologik muammolarning tobora global ahamiyat kasb etib borayotganligi inobatga olinib, so'nggi yillarda muhim ustuvor vazifalar bilan bir qatorda atrof muhit muhofazasi, ekologik madaniyat, ekologik ta'lim-tarbiya, ekologik ma'rifat masalalariga alohida e'tibor berilmoqda.

«Inson tomonidan biosferaga ko'rsatilayotgan ta'sirni tartibga solish, ijtimoiy taraqqiyot bilan qulay tabiiy muhitni saqlab qolishning o'zaro ta'sirini uyg'unlashtirish, inson va tabiatning o'zaro munosabatlarida muvozanatga erishish muammolari borgan sari dolzarb bo'lib qolmoqda. Ekologik xavfsizlik kishilik jamiyatining buguni va ertasi uchun dolzarbligi, juda zarurligi bois eng muhim muammolar jumlasiga kiradi. Bu muammolar amaliy tarzda hal etilsa, ko'p jihatdan hozirgi va kelgusi avlod turmushining ahvoli va sifatini belgilash imkoniyatini beradi»[1]

Bugungi kunda insoniyat tabiatga jiddiy zarar etkazganiga qaramay, uni asl holatiga qaytarish uchun barcha imkoniyatlarga ega. Ekologik vaziyatni yaxshilashga ta'sir ko'rsatuvchi omillardan biri jamiyatning har bir a'zorida zamonaviy ekologik dunyoqarashni shakllantirishdan iborat.

XXI - asr ekologiya asri bo'lishi shubhasizdir. Har bir inson ona sayyoramiz tabiatiga ziyon etkazmasdan o'zgartirish, tabiiy boyliklaridan oqilona foydalanish

va yashash muhitini saqlashdek muqaddas ishga o'zining munosib hissasini qo'shishi lozimdir.

Ekologik ta'limning dolzarbligi mamlakatimiz tabiati, ekotizimlari, atrof muhitni beqarorlik va izdan chiqishdan asrash, aholining ekologik madaniyatini oshirish, ushbu o'ta jiddiy, hayotiy masalalarga aholining barcha qatlamlari, ayniqsa, yoshlar hissa qo'shishi zarurligi bilan belgilanadi.

Yurtimizda ekologik ta'limni rivojlantirish bo'yicha tegishli normative-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Jumaladan, Ozbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasida ekologik ta'limni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" [2] qarori qabul qilindi. Unga binoan, Konsepsiyaning asosiy maqsadi o'sib kelayotgan yosh avlodda ekologik bilim, ong va madaniyatni shakllantirish hamda rivojlantirish, ekologik ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish, shuningdek, ekologiya sohasidagi ilm-fanni jahonning ilg'or innovatsion texnologiyalarini jalb etgan holda yanada takomillashtirishdan iborat.

"Ta'lim to'g'risida"gi va "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"[3]gi O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq uzluksiz ta'lim tizimida ekologik ta'limni rivojlantirishdan iborat.

Shuningdek, "2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining Atrof muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni [4] qabul qilindi. Unga ko'ra, 2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining Atrof muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini 2019 — 2021-yillarda amalga oshirish bo'yicha "yo'l xaritasi" tuzilgan bo'lib, unda O'zbekiston Respublikasining Ekologik kodeksini ishlab chiqish va qabul qilish orqali atrof muhitni muhofaza qilish sohasida davlat organlarining funktsiya hamda vazifalarini aniq chegaralash, shuningdek, ularning harakatlari muvofiqlashtirilishini ta'minlash, ekologiyani yanada yaxshilash bo'yicha ilm-fanni rivojlantirish, ekologik ta'lim-tarbiyani, ekologik ong va madaniyatni shakllantirish bo'yicha alohida qoidalar kiritilgan.

"O'zbekiston Respublikasining ekologik nazorat to'g'risida"[5]gi Qonunida ekologik ta'lim-tarbiya berish, tushuntirish ishlari olib borish, jamoaviy atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatlarni o'z ichiga olgan.

Ekologiyani himoya qilish, muhofazalash, uning insonlar uchun qanchalik muhim ekanligi, atrof-muhitga ziyon yetkazish kelajak avlodlarga hiyonat qilish bilan barobar bo'lib, ekologiyani saqlash bo'yicha konstitutsiyamizda ham alohida moddalar kiritilgan. Jumladan, Tabiatni muhofaza qilishning tashkiliy va huquqiy asoslari O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyasida o'z aksini topgan. Konstitutsiyaning 50, 54, 55 va 100-moddalarida[6] fuqarolarning ushbu sohasidagi huquq va majburiyatlari, atrof-muhitga munosabat va boshqaruv tizimi

bo'g'inlarining faoliyati belgilangan. Jumladan 50-moddada “Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga majburdirlar” deyiladi. 100-moddada atrof muhitni muhofaza qilish mahalliy hokimiyat organlari vazifasiga kirishi ta'kidlangan. O'zbekistonda tabiiy sharoitlarni saqlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishning huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy asoslarini “Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida”gi[7] Qonuni belgilab beradi. Qonunga muvofiq O'zbekistonda tabiatni muhofaza qilishga taalluqli huquqiy munosabatlarni tartibga solish Oliy Majlisning mutlaq vakolati doirasiga kiradi. Bularga tabiatni muhofaza qilish sahasidagi davlat siyosatini belgilash, davlat ekologiya dasturlarini tasdiqlash; ushbu sohadagi respublika qonun xujjatlarini ishlab chiqish va qabul qilish; tabiatni muhofaza qilishga taaluqli qonunlar ijrosini muvofiqlashtirib borish va boshqalar kiradi.

Ekologik ta'lim-tarbiyani maktabgacha ta'lim muassasalari va maktablardan boshlab yuqori ta'lim muassasalarida uzluksiz olib borish kerak. Uzluksiz ta'lim jarayoni maktabgacha ta'lim muassasalarida atrof-dagi tabiat va o'rab turgan olam bilan tanishuvdan boshlanadi. Ushbu mavzuni chuqurlashtirish boshlang'ich sinflar negizida «Sog'lomlashtirish», «Atrofimizdagi olam» va «Tabiatshunoslik» kabi fanlar orqali, so'ngra o'rta maktabda, o'rta maxsus va oliy ta'lim muassasalarida tabiiy hamda gumanitar fanlar majmui orqali davom ettiriladi. Tabiat, uning go'zalligi va tabiiy boyliklarni saqlash borasidagi ishlarni oila, bog'cha bolalari va maktab o'quvchilari orasida olib borishdan boshlab, yosh va o'sib kelayotgan avlodni atrof muhit, undagi o'simlik, hayvon, suv va tuproqqa mehr-shafqatli, ularni asraydigan, boyitadigan jonkuyar qilib tarbiyalash kerak.

“Ekologik ta'lim – maqsadli yo'naltirilgan reja asosida tizimli ekologik bilim, madaniyat, malaka va o'quvni rivojlanish jarayonida o'rganib borishdir. Shuningdek, ekologik madaniyatning shakllanishi – ekologik ong va tushunchani shakllanishi bo'lib, atrof-muhit bilan chambarchas bog'liq bo'lishdir. Ekologik madaniyatning asosiy g'oyasi – inson va tabiat o'rtasidagi bog'liqlik moddiy tomondan emas, balki ma'naviy jihatdan bo'lishi kerak”-[8] deydi D.Yo.Yormatova. Bu ayni haqiqat va qachonki odamlar ma'naviy, vijdonan atrof-muhitga munosabatda bo'lish zarur.

Ekologik ta'lim-tarbiya umumiy ta'lim-tarbiyaning yangi shakli va tarkibiy qismi bo'lib, maktabda barcha fanlarni o'qitishda amalga oshirilishi ko'zda tutiladi. Ekologik ta'lim-tarbiyadan bosh maqsad ham yosh avlodga atrof-muhit va uning muammolariga ongli munosabatni shakllantirishdan iboratdir. Ekologik tarbiyalash jarayonida yoshlarni yashab turgan tabiatimiz boyliklarini tejab-tergashga, uni muhofaza qilishga o'rgata boriladi.

P.S.Sultonovning ta'kidlashicha, tabiatni muhofaza qilish bo'yicha ta'lim berish - bu tabiatni muhofaza qilish masalalarining nazariy va amaliy jihatdan

o'zlashtirishga yo'naltirilgan o'qitish tizimidir. Umumiy va maxsus ekologiya asoslarini bilish har bir zamonaviy kishi uchun zarur bo'lgan madaniyat elementi hisoblanadi. Ekologik ta'lim berishdan maqsad, har bir kishiga kelajakda u qaysi sohada ishlashidan qat'i nazar, tabiat va jamiyatning o'zaro munosabati to'g'risidagi bilimlarni berishdir. [9]

P.S.Sultonovning fikri va taklifiga qo'shilgan holda, shuni qo'shimcha qilamizki, ekologiya fanini uzluksiz ta'lim tizimining barcha yo'nalishda olib borish hozirgi davrning dolzarb atrof-muhit muammolarini yechishga yordam beradi.

Shuningdek, ekologiyani muhofaza qilish qaratilgan ba'zi bir taklif va mulohazalarni keltirib o'tsak maqsadga muvofiq bo'lardi.

Birinchidan, maqsadlarga erishish uchun maktabgacha ta'lim muassalari tarbiyalanuvchilarini maxsus «Ekologik ta'lim-tarbiya metodikasi», «Tabiat bilan tanishish» kabi dasturlar asosida tarbiyalash hamda turli o'yinlar vositasi bilan tabiatga oid ekologik ta'lim elementlarini bolalar ongiga singdirish;

Ikkinchidan, tabiatga nisbatan mehr-muhabbat uyg'otish borasida olib boriladigan ishlar maxsus metodik qo'llanmalar, tavsiyalar, «Atrofimizdagi olam» darslarida olib borilishi;

Uchunchidan, Maktablarda «Atrofimizdagi olam», «Tabiatshunoslik» o'quv kitoblari asosida «atrof muhit», «tabiat», «atrof muhit muhofazasi», «ekologiya», «ekologiya ziddiyatlari» kabi tushunchalar botanika, zoologiya, adabiyot, kimyo, fizika va ayniqsa, «Umumiy biologiya» fanlarini o'tishda alohida o'rin olishi kerak;

To'rtinchidan, Bolalarga atrof-muhit borasida ekologik ta'lim-tarbiya beradigan tarbiyachi va metodistlarning o'zlari maxsus kurslarni tamomlagan, tajribali mutaxassislar bo'lishi;

Beshinchidan, maktab va litsey o'quvchilari «yosh tabiatshunoslar», «Yashil patrullar» «Jonivorlarni asrovchi jonkuyarlar», «Ona yer patrullari», «Toza havo», «Moviy suv» patrullari, sog'lomlashtirish lanerida tuzilgan «Tabiat va fantaziya», «Yosh fenologlar», «Tabiatni muhofaza qilish» kabi to'garaklarda maxsus tayyorlagan «Yosh ekologlar», «Tabiatni muxofaza qilish» kabi to'garaklarni maxsus tayyorlagan «Yosh ekologlar» o'quv dasturi asosida atrof muhit muammolarini har tomonlama o'rganib borish;

Oltinchidan, «Ekologik ta'lim va tarbiya uslubi» dasturi asosida tarbiyachilarni qayta tayyorlash kurslari, leksiyalar, tajriba almashish seminarlari tashkil qilib, xizmatchilarning bilim va saviyalari, ishlash qobiliyatlarini oshirish kerak;

Yettinchidan, o'quvchilarni tabiat, agrotsenozlarga, ekskursiyalarga olib chiqishda atrof muhit holati, uning muhofazasi alohida o'rin olishi, o'quvchilar shu ekskursiya davomida o'zlari yashayotgan joyning tabiati, uning ekologik holati,

unga ta'sir qilayotgan salbiy va ijobiy omillar, tabiat boyliklarini saqlash va boyitish borasida chora-tadbirlar ko'ra bilish bo'yicha bilim, ko'nikmalar va fikrlash qobiliyatiga ega bo'lib, ekskursiyadan qaytishlari kerak.

Ekologik monitoringni olib borishida ham jadal ishlar olib borilmoqda. Ekologik monitoring (EM) – ekologik ta'lim tizimining bir qismi bo'lib, asosan ekologik bilimlar va tushunchalarning, dunyoqarashning amaliy ishlar asosida shakllanishiga, o'zi yashab turgan joydagi tabiat o'zgarishlarini uzluksiz ravishda kuzatib borishga aytiladi. Ekologik monitoring aslida tabiiy muhit, ekotizim va boshqa hodisalarni bir muddatda o'rganilgan izlanishlar asoslamaydi, balki alohida ajratib olingan joylarda bir necha yillar davomida olib borilgan ko'p yillik ishlarni taqqoslash natijasiga amal qilgan holda olib boriladi[10]

Xulosa qilib aytganda, yuqorida keltirib o'tilgan normativ - huquqiy hujjatlarning amalga oshirilishi, ekologik ta'limning izchillik bilan joriy qilinishi yoshlarda ekologik – huquqiy ong va madaniyatni oshirishga salmoqli hissa qo'shadi, deb o'ylaymiz.

Adabiyotlar:

- 1.suvonqulov, jamshid. (2020). Ўрмонларни муҳофаза қилиш соҳасида жамоат назоратининг ҳуқуқий асослари . *Архив Научных Публикаций JSPI, 1(49)*. извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/5174
- 2.suvonqulov, jamshid. (2020). Фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари экологик ваколатларининг ҳуқуқий асослари тушунчаси, таркиби ва муаммолари. *Архив Научных Публикаций JSPI, 1(49)*. извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/5176
- 3.suvonqulov, jamshid. (2020). Жамоат экологик экспертизаси : фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари ваколатларини такомиллаштириш. *Архив Научных Публикаций JSPI, 1(49)*. извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/5177
- 4.suvonqulov, jamshid. (2020). Экологик мониторингда ўзини ўзи бошқариш органларининг иштироки. *Архив Научных Публикаций JSPI, 1(49)*. извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/5179
- 5.suvonqulov, jamshid. (2020). “Экологик назоратни амалга оширишда фуқаролар ўзини ўзи бошқариш органларининг иштироки”. *Архив Научных Публикаций JSPI, 1(49)*. извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/5180
- 6.suvonqulov, jamshid. (2020). “Электрон давлат хизматларидан фойдаланиш ҳуқуқини амалга ошириш - инсон манфаатларини таъминлашнинг муҳим қафолати”. *Архив Научных Публикаций JSPI, 1(49)*. извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/5182
- 7.suvonqulov, jamshid. (2020). Фуқароларнинг соф атроф муҳитга эга бўлиш ҳуқуқининг конституциявий асослари. *Архив Научных Публикаций JSPI, 1(49)*. извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/5171
- 8.suvonqulov, jamshid. (2020). Қишлоқда экология муаммолари. *Архив Научных Публикаций JSPI, 1(49)*. извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/5168

9.suvonqulov, jamshid. (2020). Ислом Каримов – Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг яратувчиси. *Архив Научных Публикаций JSPI, 1(48)*. извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/5208